

## Xorijiy ilg'or kompaniyalar bilan hamkorlik

Institutimiz “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti bilan Rossiya Federatsiyasining “Rostselmash” kompaniyasi hamkorlik shartnomasi doirasida, “Rostselmash” kompaniyasining Markaziy Osiyo bo'yicha marketing direktori Alla Aleksandrovna Demchenko institutimizga tashrif buyurdi.



Tashrif doirasida A.A.Demchenko “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti o’quv jarayoni, fakultetdagi kafedralar faoliyati va ularning o’quv bazasi bilan tanishdi. Shundan so’ng A.A.Demchenko “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti professor-o’qituvchilari, magistr talabalari bilan uchrashuvi bo’lib o’tdi.



Uchrashuv so’ngida A.A.Demchenko kelgusida “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakultetiga “Rostselmash” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan texnikalarining zamonaviy laboratoriya stendlari bilan boyitilishi borasidagi ishlar davom ettirilishini aytib o’tdi. Shuningdek, professor-o’qituvchilarning stajirovka o’tashlari hamda kompaniya tomonidan adabiyotlar bilan ta’minlanishi yuzsidan kelishib olindi.

